

2-TOM, 5-SON

O'ZBEK TILIDAGI OILA LEKSEMASI ASSOTSIATIV MAYDONINING  
TUZILISHI

**Sotimova Hayotxon**

UrDU ning O'zbek tilshunosligi kafedrasida stajor o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi *oila* leksemasining assotsiativ maydoni, bu maydonga semantik jihatdan bog'langan va bog'lanmagan birliklar, individual va jamoviy xarakter kasb etuvchi assotsiatsiyalar xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *assotsiativ maydon, semantik bog'lanish, individual, jamoviy xarakter, paradigmatica, leksik birlik, sintaktik birlik.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается ассоциативное поле семейной лексемы в узбекском языке, семантически связанные и несвязанные с этим полем единицы, ассоциации, приобретающие индивидуальный и собирательный характер.

**Ключевые слова:** ассоциативное поле, семантическая связь, личность, коллективный характер, парадигматика, лексическая единица, синтаксическая единица.

**Abstract:** This article discusses the associative field of the family lexeme in the Uzbek language, semantically linked and unlinked units to this field, associations that acquire individual and collective character.

**Key words:** associative field, semantic connection, individual, collective character, paradigmatics, lexical unit, syntactic unit.

Assotsiativ maydon tushunchasi assotsiativ tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Assotsiativ maydon terminini ilmiy muomalaga taniqli fransuz tilshunosi Sh.Balli kiritgan. Assotsiativ maydon tildagi boshqa maydon ko'rinishlari, jumladan, funksional-semantik (mazmuniy maydon) dan farqlanadi.

Sh.Iskandarova birlashtiruvchi semasiga ko'ra umumiy bo'lgan, ammo turli sathlarga mansub birliklar (grammatik va leksik birliklar) yig'indisini funksional-semantik maydon deb atagan.[1.43] Biz ham birlashtiruvchi umumiy ma'nosi asosida o'zaro bog'langan turli sathga mansub birliklar jamlanmasini funksional-semantik maydon sifatida talqin etamiz.

Assotsiativ maydon esa bir-birini yodga tushuruvchi, biri eslanganda xotirada yana boshqasi tiklanuvchi til birliklarining yig'indisi bo'lib, bir sathga yoki turli sathga oid birliklar munosabatidan tashkil topadi.



## 2-TOM, 5-SON

*Oila* leksemasining assotsiativ maydonida ham o‘zaro semantik bog‘langan birliklar bilan birga, semantik jihatdan bog‘lanmagan, til egalarining ruhiyati, kayfiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, yoshi, jinsi, olam haqidagi bilimlari bilan bog‘liq holda xotirada tiklangan birliklar ham birlashadi. Bunday birliklar nutqqacha tayyor til birliklaridir. Bularga leksik birliklar, iboralar, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, til egalarining nutqida barqaror birlik kabi qo‘llanilayotgan ayrim so‘z birikmalari va gaplar hamda nutq jarayonida hosil bo‘luvchi nutqiy sintaktik birliklar kiradi.

*Oila* leksemasining assotsiativ maydonida, asosan, quyidagi birliklar o‘rin oladi: *ota, ona, farzand, baxt, uy, sevgi-muhabbat, mehr, sog‘lik, oila davrasi, turmush o‘rtoq, pul, tashvish, non, dasturxon, to‘y, yangi yil bayrami, shinam uy, tarbiya, aka-uka, tinchlik* kabilar. Ko‘rinadiki, assotsiativ maydon tarkibida leksik birliklar bilan birga, sintaktik birliklar ham (*oila davrasi, yangi yil bayrami, shinam uy*) o‘rin oladi. Ushbu maydonda stimuly so‘z bilan semantik jihatdan bog‘langan *ota, ona, farzand, baxt, uy, turmush o‘rtoq, oila davrasi, aka-uka* kabi birliklar bilan birga, bu leksemaga semantik jihatdan aloqador bo‘lmagan *pul, tashvish, non, dasturxon, to‘y, yangi yil bayrami, tarbiya, tinchlik* kabi birliklar ham uchraydi.

Demak, *oila* leksemasining assotsiativ maydonida nafaqat tildagi grammatik bog‘lanishlar, balki insonning shu leksema bo‘yicha tasavvuridagi ifodalari ham aks etadi. Maydondagi *pul, tashvish, shinam uy, issiq uy, kartoshka, pomidor, ekin* kabi birliklar stimuly so‘zga javob reaksiyasi beruvchi sinaluvchining *oila* leksemasi bo‘yicha tasavvuri bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan.

A.Nurmonov assotsiativ maydondagi assotsiativ qatorlarning quyidagi ikki jihatini farqlash lozimligini ta’kidlagan: a) tarkibning noaniqligi; b) miqdorning chegarasizligi.[2.59]

Haqiqatdan ham, *oila* leksemasining assotsiativ maydonining tarkibi har xil. *Oila* leksemasiga umuman aloqasi yo‘q bo‘lgan birliklar ham assotsiativ maydonni tashkil qilgan. Masalan, *maktab, velosiped, mushuk, manti, qatiq, ekin, gilos, ro‘mol* kabi. Assotsiativ maydonning chegarasizligi esa sinaluvchilarning soni va stimuly so‘z bo‘yicha tasavvurlariga bog‘liq. Sinaluvchilar qancha ko‘p bo‘lsa, assotsiativlar miqdori ham shuncha ko‘p va rang-barang bo‘ladi.

Assotsiativ maydon tahlilida uning tarkibi masalasi muhim o‘ringa ega. *Oila* leksemasi assotsiativ maydonning katta qismini stimuly so‘z bilan semantik jihatdan bog‘langan assotsiativlar egallaydi. Ba’zi hollarda assotsiativ vazifasida *oila* leksemasining berilishi ham kuzatildi. Assotsiativ maydondagi *oila davrasi, oilaviy tadbirlar, oilang hamma narsang* kabi birikmalar tarkibida *oila* leksemasining o‘zi berilgan.



## 2-TOM, 5-SON

*Oila* leksemasining assotsiativ maydonida ba'zan so'zlashuv nutqiga oid assotsiativ birliklar, leksik birliklar bilan semantik jihatdan butkul bog'lanmagan yoki nutqiy vaziyat, nutq egasining ruhiy holati kabi tashqi omillar bilan bog'liq assotsiatsiyalar ham ko'zga tashlanadi. Bunday assotsiatsiyalar pragmatik assotsiatsiyalar deyiladi. Masalan, o'tkazilgan assotsiativ tajribada *oila* stimul so'ziga berilgan *tashvish, janjal, og'riq, bepisandlik, tushunmovchilik* kabi assotsiatsiyalar sinaluvchilarning ruhiy holati bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan. Assotsiativ maydondagi assotsiatsiyalarning ichida hatto tashqi muhit, havo harorati bilan bog'liq assotsiatsiyalar ham uchraydi. Biz assotsiativ tajribamizni qish faslida o'tkazganimiz uchun sinaluvchilarimiz tomonidan *issiq uy, shinam uy* kabi javob reaksiyalarini ham kuzatishimiz mumkin.

*Oila* leksemasining assotsiativ maydon birliklari ichida individual va jamoviy xarakter kasb etuvchi assotsiatsiyalarni ko'rish mumkin. Har bir inson dunyoni o'z qarichi bilan o'lchaydi deganlaridek, u voqelikni ham o'z tasavvuri darajasida idrok etadi. Bu holat individual assotsiatsiyalarning yuzaga kelishiga olib keladi. Misol uchun, assotsiativ maydondagi *pul, boylik, mablag', mashina, hashamatli uy* assotsiatlari til egasining oila haqidagi individual qarashlarini ifoda etadi.

*Individual assotsiatsiyalarning shakillanishiga til egalarining kasbi, jamiyat hayotidagi mavqeyi, jinsi, yoshi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi kabilar ham ta'sir ko'rsatadi.*[3.91,93]

*Jamoviy xarakterdagi assotsiatlar voqelikning ko'pchilik tomonidan bir xil tushunilishi asosida hosil bo'ladi. Bunda sinaluvchilarning katta qismi stimul so'z bo'yicha bir xil javob reaksiyalarni qayd etishadi. Ushbu assotsiatlar ko'pincha inson hayotidagi muhim tushunchalarni ifoda etadi. Masalan, ota, ona, baxt, farzand, uy, sevgi-muhabbat, mehr, sog'lik, tinchlik, aka-uka, opa-singil kabi assotsiatlari har bir insonning oila haqidagi asosiy tushunchalaridir. Ota, ona, farzand, turmush o'rtoq, aka-uka, opa-singil –bu oilani tashkil qiluvchi asosiy bo'g'indir. Har bir tilning me'yoriy assotsiativ lug'ati uchun mana shunday jamoviy xarakterdagi assotsiativ birliklar asos qilib olinadi.*[4]

*Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, assotsiativ birliklar individual yoki jamoviy tusda bo'lmasin, til egalarining tafakkur mahsuli sanaladi.*

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент. 1999. – Б. 43.



**2-TOM, 5-SON**

2.Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари («Лингвистика» йўналишидаги магистрлар учун ўқув қўлланма). – Андижон. 2006. – Б. 182.

**3.Хошимова Н.А. Прагматические аспекты при исследовании ассоциаций // Вестник МГОУ. Серия «Русская филология». 2011. - № 6.**

4.Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). –Toshkent: «NAVOIY UNIVERSITETI» nashriyot-matbaa uyi. 2019. – 334 b.

